

QISHLOQ XO‘JALIGIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEKNOLOGIYALARI FANINI O‘QITISHDA GOOGLE CLASSROOM PLATFORMASIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Buranova Dildufaxon Anvarovna

O‘zbekiston. Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida “Axborot-kommunikatsion texnologiyalar” fanini o‘qitishda Google Classroom platformasidan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Mustaqil ta’limni tashkil etish, talabalarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish va ta’lim jarayonini optimallashtirish bo‘yicha metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Google Classroom, raqamli ta’lim, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, mustaqil ta’lim, raqamli kompetensiya, qishloq xo‘jaligi ta’limi.

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЛАТФОРМЫ GOOGLE CLASSROOM В ОБУЧЕНИИ ИНФОРМАЦИОННО- КОММУНИКАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ

Буранова Дильфузахон Анваровна

*Узбекистан. Ассистент Андижанского института сельского хозяйства
и агротехнологии*

Аннотация. В статье анализируются возможности использования платформы Google Classroom при преподавании дисциплины «Информационно-коммуникационные технологии» в высших учебных заведениях аграрного профиля. Представлены методические рекомендации по организации самостоятельной работы, развитию цифровой компетентности студентов и оптимизации образовательного процесса.

Ключевые слова: Google Classroom, цифровое образование, информационно-коммуникационные технологии, самостоятельное обучение, цифровая компетентность, сельскохозяйственное образование.

ADVANTAGES OF USING THE GOOGLE CLASSROOM PLATFORM IN TEACHING INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN AGRICULTURE

Buranova Dilfuzakhon Anvarovna

Uzbekistan. Assistant of Andijan institute of agriculture and agrotechnology

Abstract. This article analyzes the possibilities of using the Google Classroom platform in teaching the subject "Information and Communication Technologies" in higher educational institutions of agricultural specialization. Methodological recommendations are presented for organizing independent learning, developing students' digital competence, and optimizing the educational process.

Keywords: Google Classroom, digital education, information and communication technologies, independent learning, digital competence, agricultural education.

Kirish. So‘nggi yillarda ta’lim tizimini raqamlashtirish global miqyosda ustuvor yo‘nalishga aylandi. O‘zbekiston Respublikasida ham “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida barcha sohalarda, jumladan, qishloq xo‘jaligi ta’limida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda o‘quv jarayonini zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanmasdan tashkil etish mumkin emas. Ta’lim va tarbiyaning eng dolzarb vazifasi XXI asrdagi insonning aqliy qobiliyatlari va insoniy fazilatlarini shakllatirish orqali aniqlanadigan talabalarining kompetentligini oshirishdan iborat: mas’uliyat, boshqalarning fikr-mulohazalariga nisbatan bag‘rikenglik, muloqot qobiliyati, o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyati, fikrlashni rivojlantirish, turli xil shakllarda va turli xil yo‘llar bilan ma’lumotlarni topish, tahlil qilish, boshqarish, integratsiya, baholash va yaratish qobiliyati, jamoada ishlash qobiliyati, muammolarni yechi sh va hal qilish qobiliyati.

Ko‘rsatilgan muammoni hal qilish uchun o‘quv jarayoniga zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan integratsiyalashgan axborot texnologiyalaridan foydalanish

tavsiya etiladi.

Shu jarayonda Google Classroom platformasi o'qitish jarayonini avtomatlashtirish, masofaviy o'qitish va mustaqil ta'limni samarali tashkil etish vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

1. Google Classroom platformasining o'quv jarayonidagi o'rnini

Google Classroom – bu Google kompaniyasi tomonidan yaratilgan bepul ta'lim platformasi bo'lib, u o'qituvchi va talaba o'rtasida raqamli ta'lim muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Google Classroom – ta'lim jarayonini tashkil qilishdagi bulutli platformadir. Platforma o'qituvchi va o'quvchi (talaba)lar hamkorligiga asoslangan ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyatini beradi. Ushbu ta'lim platformasi Google Drive, Docs, Sheets, Slides, va Meet kabi xizmatlar bilan integratsiyalashgan bo'lib, bu ta'lim jarayonini yagona tizimda boshqarish imkonini beradi.

Google Classroom platformasi 2014-yil 12-avgust kuni Google kompaniyasi tomonidan rasmiy ravishda ishga tushirilgan bo'lib, Google Classroomning yaratilish maqsadi — o'qituvchi va talabalarga dars topshiriqlarini elektron shaklda almashish imkoniyati yaratish, shaffof baholashga erishish, aloqa o'rnatishni soddalashtirish va raqamlashtirish hisoblanadi. Google Classroom ilovasi – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi fan doirasidagi o'zaro muloqot vositasi hisoblanadi. Google Classroom orqali o'qituvchilar kurslar yaratishi, talabalarga topshiriqlarni yuborishi va ularga izoh berishi, shuningdek, talabalarning fikr-mulohazalarini qabul qilishi mumkin. Bugungi kunda 2025-yil holatiga ko'ra, Google Classroom dunyo bo'yicha 150 milliondan ortiq foydalanuvchi (o'qituvchi va talaba) tomonidan foydalaniladi va u eng mashhur ta'lim platformalaridan biri hisoblanadi.

Platformaning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- O'qituvchi tomonidan topshiriqlarni tezkor joylashtirish va nazorat qilish;
- Talabalar uchun qulay interfeys va mobil ilova mavjudligi;

- Baholash tizimini avtomatlashtirish;
- Fikr-mulohaza bildirish va interaktiv muloqotni yo'lga qo'yish imkoniyati.

2. Mustaqil ta'limni tashkil etishda Google Classroom'dan foydalanish

Qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi fanlar, ayniqsa "Axborot-kommunikatsion texnologiyalar" fanida, talabalar nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur. Shu maqsadda, Google Classroom quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Talabalarga elektron darslik, video va laboratoriya ko'rsatmalari joylashtirish;
- Mustaqil ish, referat va tahliliy topshiriqlarni onlayn topshirish va tahlil qilish;
- Har bir talabaga individual izoh berish va natijalarni qayd etish;
- Guruhli muhokamalar orqali interfaol o'qitishni rivojlantirish.

3. Amaliy dars ishlanmasi asosida tajriba

O'quv tajribasi davomida "Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar" fanida 80 daqiqalik amaliy mashg'ulot "Google Classroom platformasida mustaqil ta'limni tashkil etish" mavzusida o'tkazildi.

Dars bosqichlari quyidagicha tashkil etildi:

1. Kirish (10 daqiqa) – platformaning imkoniyatlari bilan tanishtirish;
2. Asosiy qism (50 daqiqa) – talabalar Google Classroom'da guruhga qo'shilib, topshiriqni bajarish;
3. Yakuniy qism (20 daqiqa) – natijalarni tahlil qilish va fikr almashish.

Natijada talabalar:

- Platformaga muvaffaqiyatli kirish va ishlash ko'nikmasini egalladilar;
- Mustaqil topshiriqlarni vaqtida va sifatli bajardilar;
- O'qituvchi fikrini tahlil qilish va o'z faoliyatini baholash malakasiga ega bo'ldilar.

4. Metodik tahlil qilib shunday hulosaga kelish mumkinki, amaliy mashg'ulot natijalariga ko'ra, Google Classroom platformasidan foydalanish natijasida talabalarning raqamli savodxonligini oshirishga, mustaqil ishlashga bo'lgan mas'uliyat va motivatsiyani kuchaytirishga, o'qituvchi uchun vaqtni tejash va

baholashning aniqligini ta'minlashga, Google Classroom raqamli ta'limni tashkil etishning qulay, bepul va moslashuvchan vositasi ekanligiga ishonch hosil qilish shuningdek, talabalar tomonidan topshiriqlarni o'z vaqtida topshirish darajasi sezilarli oshganligini ko'rish mumkin bo'ladi.

Xulosa. Google Classroom platformasi qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida "Axborot-kommunikatsion texnologiyalar" fanini o'qitishda samarali raqamli vosita hisoblanadi. U o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi, ta'lim jarayonini interaktiv, tizimli va shaffof qiladi. Kelgusida bu platformani boshqa agrar soha fanlarida ham keng joriy etish, masofaviy o'qitish modellariga integratsiya qilish masalasini taklif qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmoni.
2. To'rayeva G.H. Google Classroom platformasida ishlash bo'yicha metodik tavsiyalar. Uslubiy qo'llanma. Buxoro: 2020 yil. – 36 b.
3. Абдрахманова Ж. Е. Методические рекомендации для работы в платформе Google Classroom // Нур-Султан-2019.
4. Buranova.D. "Qishloq xo'jaligi oliy o'quv yurtlarida talabalarni kasbiy-kommunikativ tayyorlash". "Экономика и социум" №3(118). 2024. ISSN: 2225-1545; 2541-9285. www.iupr.ru. 101-105 betlar.
5. Buranova.D. "Bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislarining kompetensiyaviy samaradorligini oshirish masalalari to'g'risida", "Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў", ISSN 2181-7138.4-сан, июль, Нөкис-2024. Қарақалпақстан. 132-135 betlar.
6. Buranova.D. "Qishloq xo'jaligi bo'lajak mutaxassislarini kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ayrim muammolari", Science and education in

agriculture, iyul 2024. volume 7, issue 7. ISSN: 3030-3222, OAK.
<http://www.seagc.andqxai.uz>. 41-44 betlar.

7. Александрова З.В. Инструкция по созданию онлайн-курса в Google Classroom // 2019.